Advances in Science and Sustainability



Advances in Science and Sustainability, 2025, 3–7

doi: 10.70728/susta.v01.i10.001
Volume 01, Issue 10
ISSN: 3060-5407
Paper

PAPER

YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR O‘SISH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI

Isayev Atabek Djurabayevich[1,*] and Narzullayev Nursulton Shuhrat o‘g‘li[2]

[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi doktoranti
[2]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

* nursultonnarzullayev1105@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada barqaror rivojlanish tushunchasining zamonaviy talqini hamda yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni keng tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi yangi iqtisodiy model sifatida nafaqat ekologik muammolarni yumshatish, balki iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta’minlash va mintaqaviy rivojlanishning muhim omiliga aylangani ilmiy asosda asoslab berilgan. Muallif O‘zbekiston misolida yashil iqtisodiyotning mehnat bozori va mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikka ta’sirini o‘rganar ekan, ekologik toza ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Key words: barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit, atrof-muhit iqtisodiyoti, innovatsion iqtisodiyot, resurslar va hokozo

Kirish

Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish har bir mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim strategik masala hisoblanadi. Unga erishishning iqtisodiy tamoyillari atrof-muhit sofligini saqlagan holda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning dolzarbligini yanada oshiradi va yangi yondoshuvlarning shakllanishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti – bu erkin raqobat va talab-taklif mexanizmlari asosida shakllanadigan iqtisodiy tizim bo‘lib, unda davlat aralashuvi minimal darajada bo‘ladi. Bunday iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘z manfaatlariga qarab qaror qabul qiladilar, bu esa iqtisodiy o‘sish va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

2025-yilning mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili deb e’lon qilinishi va shu yilning 7-aprelida “Parlamentlararo Ittifoqning 150-yilligiga bag‘ishlangan Assambleyada muhtaram Prezidentimizning qilgan ma’ruzasida bu kabi muammolarning qayta-qayta tilga olinishi o‘rganilayotgan masalaning o‘ta

Compiled on: December 4, 2025.
Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Sustainability for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotga o'tish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalariga e'tibor bundan besh-olti yillar oldin boshlandi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risi"gi PQ-4477-sonli qarori qabul qilinib, unda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlari etib, quyidagilar belgilandi:

-iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;

-energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

-iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

-"yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tabiiy resurslar zahiralarining cheklanganligi sharoitida qarorda belgilab berilgan ustuvor vazifa va topshiriqlarni bajarish alohida e'tibor, kuch-gayrat va qolaversa moliyaviy mablag'larni jalb qilishni talab qiladi. Bu esa tabiatdagi ayrim resurslarni takror ishlab chiqarishning mumkin emasligi shartidan kelib chiqqan holda, ulardan tejab-tergab foydalanish va pirovardida yuqori iqtisodiy natijalar keltirishini bashorat qilishga imkon beradi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. – "Yashil iqtisodiyot". Ushbu darslik O'zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib beradi. Mualliflar barqaror rivojlanish tamoyillari, ekologik muammolar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha milliy tajribani tahlil qilgan.

BMT atrof-muhit dasturi tomonidan tayyorlangan "Towards a Green Economy" (2011) hisobotda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining global darajadagi nazariy asoslari, 10 ta soha bo'yicha tavsiyalar, va qashshoqlikni kamaytirishdagi roli yoritilgan.

"Green Growth Strategy Reports" (2011–2022) strategik hujjatlarda iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlikni birlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Unda indikatorlar tizimi, davlat siyosati, soliqlar va yashil moliyalashtirish masalalari yoritilgan.

Narzullayev N. Sh. o'g'lining "Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy bandlik darajasi" nomli maqolasida O'zbekiston iqtisodiyoti misolida yashil iqtisodiyotning mehnat bozori va mintaqaviy rivojlanishga ta'siri tahlil etiladi. Muallif yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik infratuzil-maning rivojlanishi orqali yangi ish o'rinlari yaratilayotganini ko'rsatadi. Tadqi-qotda bandlik darajasini oshirish, mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish va inson kapi-talini rivojlantirishga oid amaliy takliflar ilgari surilgan. Maqola yashil iqtisodiyot asosida mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish yo'nalishlarini yoritadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2023-yil, PQ-158-son). Strategiyada yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, ekologik xavfsizlik kabi yo'nalishlar O'zbekiston rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Fundamental tahlilning barqaror rivojlanishda "yashil iqtisodiyot" o'rnining tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullar hamda abstrakt-mantiqiy fikrlash usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bizni o'rab turgan atrof-muhitning tobora yomonlashib borishi iqtisodiy adabiyotlarda "atrof-muhit iqtisodiyoti" deb nomlangan yangi yo'nalishning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Mazkur yo'nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar kengroq talqin etila boshlandi. Unga muvofiq ekologik muammolarni

amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlash-tirilish zaruriati paydo bo‘ldi va shular yuzasidan ilg‘or fikrlar umumlashtirildi.

Barqaror rivojlanish doirasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, “yashil iqtisodi-yot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forum-larda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. “Yashil iqtisodiyot” konsep-siyasini amaliyotga tatbiq etish masalalari ushbu muhokamalarning negizini tashkil etadi.

Table 1. Jahon Bankining “yashil o‘sish”dagi samaradorlik ko‘rsatkichlari

Tarmoq	Vosita	Ko‘rsatkich
Atrof muhit	Atrof muhit holatini yaxshilash	- CO_2 emissiyasini kamaytirish; - rivojlanishdan himoyalangan tabiiy joylar; - havo va suv resurslari sifati.
Iqtisodiyot	Ishlab chiqarish omillari (fizik, inson va tabiat kapitali)ning ortishi	Marjinal mahsulot — ishlab chiqarish omilining bir birlikka ortishi natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi (ekotizim xizmatlari qiymati va tiklanadigan omillarga bog‘liq holda).
	Bozor muvaffaqiyatsizliklarini innovatsiyalarni rivojlantirish va bilimlar iqtisodiyoti asosida hal etish	- Yashil texnologiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlari; - Yashil texnologiyalar bilan ta’minlanish darajasi.
Ijtimoiy	Tabiiy ofatlar, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari beqarorligi va iqtisodiy inqiroz holatlariga moslashuvchanlikni oshirish	- ofatlardan ko‘rilgan zararlar (pul birligida); - ofatlardan zarar ko‘rgan insonlar (kishi); - narx beqarorligidan zarar ko‘rganlar (kishi).
	Yaratilgan ish o‘rinlari va kambag‘allikni kamaytirish	- yaratilgan ish o‘rinlari va ularning kambag‘allik darajasiga ta’siri; - ish bilan bandlik va resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liqlik ko‘rsatkichlar.

Jadvalga asoslanadigan bo‘lak Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar “yashil o‘sish” natijasida erishish mumkin bo‘lgan potensial iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholashga xizmat qiladi.

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonunchilik iqtisodiyotni “yashillashtirish”ga ko‘maklashishi bilan bir vaqtda milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ham ta’minlashga keng imkoniyatlar yaratdi. Barqaror rivojlanishni “ijtimoiy”- “iqtisodiy”- “ekologik” uchlikning o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara sifatida taraqqiyotga yetaklaydigan jarayon sifatida tasavvur etish boshlandi. (1 – rasm)

Figure 1. Barqaror rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi



2023-yilning 11-sentyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” qabul qilingan 158-son Farmonida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiyada bir qator ustuvor g‘oya va yo‘nalishlar keltirilgan bo‘lib, ular orasida raqamli iqtisodiyot asosida milliy iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish va aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish kabi o’ta muhim masalalar alohida o’rin egallagan.

“Yashil” iqtisodiyotni jadallashtirish negizida barqaror o‘sishni ta’minlashda iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxona gazlarining chiqindilari 2010-yil darajasidan 30 foizga kamaytiriladi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi, elektron transport rivojlanadi.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni

to'la amalga oshirish asosiy vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv "yashil" iqtisodiyot asosida cheklangan resurslardan va mavjud elektr energiyasidan oqilona foydalanish kabi muammolarni hal qilishni nazarda tutuvchi munosabatlarni yuzaga chiqaradi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash borasidagi xalqaro amaliy faoliyat BMT tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ming yillik rivojlanish maqsadlari" qabul qilindi va 2015-yil - qo'yilgan maqsadlarga erishishni hisoblash yili sifatida belgilab olindi. BMTning 2012-yilda barqaror rivojlanish mavzusida o'tkazilgan "Rio+20" konferensiyasida barqaror rivojlanish maqsadlarini (Sustainable Development Goals (SDGs)) ishlab chiqishga kelishib olindi. Ushbu maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030 yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan.

Keyingi yillarda barqaror rivojlanishni ta'minlash, "yashil" iqtisodiyotga nisbatan innovatsion yondashishni keltirib chiqardi va xalqaro investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga tadbiq etish masalalari ushbu muhokamalarning negizini tashkil etmoqda.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish masalasiga e'tibor kuchaydi. Mamlakatimiz 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilgacha mo'ljallangan 17 ta maqsadlar va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo'llab-quvvatlab, barqaror rivojlanish sohalari bo'yicha kompleks ishlarni olib borishini ma'lum qildi.

Mamlakatimizni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi dolzarb masalalar ko'ndalang qilib belgilab berildi.

Bu strategiyasining qabul qilinishi "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Parij bitimi majburiyatlarini bajarilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-447-son Qarori qabul qilindi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish nazariy va g'oyaviy jihatdan asoslangandan keyin, uning huquqiy asoslarini shakllantirish va sohaga oid tegishli qonunchilikni ishlab chiqish zaruriyati ham paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. U nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki mehnat bozori va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda yangi imkoniyatlar ochish orqali ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni O'zbekistonda ham mehnat bandligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish va hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1. Tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish, eskirgan texnologiyalarning mavjudligi va ekologik yondashuvlarning yetarlicha tatbiq etilmagani barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

2. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, yashil texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish, ularni iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish zarurati mavjud.

3. Global miqyosda barqarorlikka intilish tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanishga olib kelmoqda, bu esa ekologik muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda.

4. Barqaror o'sishni ta'minlashda davlat byudjeti xarajatlarida yashil iqtisodiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar ulushini oshirish muhim omil sifatida qaralishi lozim.

5. Xo'jalik yuritish tamoyillarini atrof-muhit muhofazasi bilan uyg'unlashtirish, uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

6. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot asosida yuritiladigan siyosat foyda miqdorini oshirish bilan birga, ekologik xavflarni minimallashtirishga

xizmat qilishi zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

• Barqaror rivojlanish indeksini hududiy kesimda joriy etish: Har bir viloyat yoki tuman kesimida yashil iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida monitoring tizimini shakllantirish;

• Kichik biznesni yashil iqtisodiyotga integratsiyalash: Innovatsion moliyalashtirish, soliq imtiyozlari va ekologik kreditlar orqali kichik korxonalarni ekologik texnologiyalarga o‘tkazish;

• Yashil energiya zonalarini tashkil etish: Quyosh, shamol va bioenergiya asosida ishlaydigan maxsus iqtisodiy hududlarni yaratish (masalan, Qashqadaryo yoki Buxoroda pilot loyihalar asosida);

• Aholi o‘rtasida yashil iqtisodiyot madaniyatini shakllantirish: Ijtimoiy reklama va ommaviy axborot vositalari orqali ekologik iste’mol madaniyatini targ‘ib qilish;

• Ta’lim tizimiga yashil iqtisodiyot kurslarini kiritish: Maktab, kasb-hunar maktablari, kollej va OTMlarda “Yashil moliya”, “Atrof-muhit iqtisodiyoti” kabi yo‘nalishlarni o‘quv dasturiga kiritish.

Ushbu xulosalar va takliflar yashil iqtisodiyot konsepsiyasini mamlakatning mintaqaviy va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga izchil integratsiyalash orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 - 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risi”gi PQ-4477-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 158-son Farmoni, 2-3-betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 158-son Farmoni, 14-bet.

4. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (https://lex.uz/uz/docs/5841063) Infografika

5. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T..Yashil iqtisodiyot. Darslik. T.: Universitet, 2020

6. Narzullayev, N. Sh. o’g’li . (2025). Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy bandlik darajasi: muammolar va ularning yechimlari https://doi.org/10.5281/zenodo.15486276

7. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (https://lex.uz/uz/docs/5841063) Infografika

8. UNEP- “Towards a Green Economy” (2011)

9. OECD – “Green Growth Strategy Reports” (2011–2022).